



DISEASES AND PESTS OF TOMATO BREEDS AND FRUITS AND MEASURES TO CONTROL THEM

A. Musurmanov¹

I. Raxmonov²

S. To'xtamishev³

M. Obloqulov⁴

A. Atabekov⁵

H. Musurmonov⁶

Gulistan State University

DOI: 10.5281/zenodo.15631040

Article History	Abstract
Received: 11.05.2025 Accepted: 10.06.2025	The article presents the results, conclusions and recommendations for studying diseases and pests of tomato plants grown as the main crop in private farms. In addition, the most common disease of tomato bushes and fruits - gray mold and measures to combat it are described.

Keywords:

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

² Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

³ Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

⁴ Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

⁵ Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

⁶ Gulistan State University, Syrdaryo, Uzbekistan

POMIDOR NOVDA VA MEVALARIDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR VA ZARARKUNANDALAR HAMDA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada aholi tomorqalarida asosiy ekin sifatida ekiluvchi pomidor o'simligi kasallik va zararkunandalarini o'rganishdagi natijalar va xulosalar hamda tavsiyalar keltirilgan. Bundan tashqari pomidor o'simligini yetishtirishda ko'p uchrayotgan Pomidor novda va mevalarning kulrang chirish kasalligi va unga qarshi kurash choralari haqida bayon qilingan.

Sabzavotlarni inson hayotidagi ozuqalik ahamiyati barchaga ma'lum. Sabzavotlar kishi organizmi uchun zarur turli biologik faol moddalar bilan ta'minlovchi eng oson manba hisoblanadi. Shu bois oxirgi besh yilda mamlakatimizda sabzavot ekinlari maydoning yildan-yilga kengaytirish, sabzavotlarning kunlik iste'mol ehtiyojini ta'minlovchi sog'lom ovqatlanishni to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirish ning Harakatlar strategiyasi" aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to'g'ri ovqatlanish madaniyatini ta'minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan. Mamlakatimizda sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va mahsulot eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Olib borilgan monitoring ma'lumotlarga ko'ra pomidor o'simliklariga asosan: kuzgi tunlam (*Agriotis segetum* Den.et Schiff), nihollik davrida shira (*Aphis*), tripslar (*Trips* tabaci Linol), pomidor kuyasi (*Tuta absoluta*), kasalliklardan; fuzarioz so'lish (*Fusarium*spp), fitoftoroz (*Phytophthora infestans* d), rezaktonioz (*Rhizoctonia solani*), viruslar (*Solanum virus*) va boshqalar tomonidan kuchli zarar keltirishi aniqlangan. O'simliklar nihollik davrida kasalliklarga qarshi immuniteti past bo'lishi, zararkunandalar tomonidan kuchli zararlanishi ma'lum, o'simlik rivojlanish davrida qanchalik erta zararlanisa hosilning ko'p qismi yo'qotilishi va sifatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli ekinlarni unib chiqish davrida kasallik va zararkunandalarning rivojlanishi, zarar keltirishi oldini olish (profilaktik) chora-tadbirlarini, urug'larni (virus kasalliklariga qarshi 48 soat davomida +50, +520C va 24 soat +80 0C qizdirish), ekishdan oldin dorilashda qo'llaniladigan preparatlardan foydalanish yuqori va sifatli hosil olishda muhim ahamiyatga ega.



Quyidagi tasvirda pomidorda kaltsiy va rux etishmovchiligi oqibatida pomidor kasallanganligini ko'rishimiz mumkin.





Pomidor novda va mevalarning kulrang chirish kasalligi va unga qarshi kurash choralari

Pomidor novda va mevalarning kulrang chirishini gifomitset *Botrytis cinerea* qo'zg'atadi. Kasallik issiqxonalarda barcha mamlakatlarda keng tarqalgan va u o'simlikning barg, gul, gulband, novda va mevalarini zararlaydi. Oldin gullar zararlanadi, ulardan kasallik barglarga, barglardan poyaga o'tadi. Barglarda och-qo'ng'ir, dumaloqroq shaklli dog'lar paydo bo'ladi va ular bargni butunlay qoplashi mumkin.



Poyada odatda och-qo'ng'ir, uzunligi 1 mm dan bir necha sm gacha bo'lgan quruq dog'lar rivojlanadi, vaqt o'tishi bilan zararlangan joylar qora tus oladi. Lupa bilan qaraganda poya ustida to'q-qo'ng'ir, eshilgan kanop ipiga o'xshash mitseliyni (yupqa mog'or qatlamini) ko'rish mumkin. Novdalarda rangsiz, ustida kulrang mog'or paydo qiluvchi dog'lar rivojlanadi. Mevalarning ustida, odatda ular novdaga birikkan joylarida, kulrang-yashil va kulrang-qo'ng'ir nekroz (yara) lar rivojlanadi va mevalar o'sha joylaridan boshlab chirydi.

Faqat yosh mevalar zararlanadi; ularning diametri 2-4 sm ga etgach, zararlanishga chidamlilik namoyon etadi, ammo pishib etilgach, yana chidamsiz bo'lib qoladi. Yashil mevalarning to'qimasiga kirgan zamburug' quyosh nuri va issiq havo harorati ta'sirida nobud bo'lishi mumkin. Bunda mevalar ustida kengligi 0,3-0,6 sm keladigan oqish doira va dog'lar paydo bo'ladi. Yuqori namlik mavjudligida chiriyotgan mevalar ustida konidiofora va konidiyalardan tashkil topgan kukunsimon kulrang mog'or rivojlanadi. Konidiyalar shamol bilan tarqaladi va boshqa, sog'lom mevalarni zararlaydi.

Zamburug' issiqxona tuprog'ida sklerotsiy va konidiyalar, rom, oyna, polietilen parda va hokazolarda konidiyalar shaklida qishlaydi.

Kurash choralari. Kasallik kuchli rivojlanishi uchun lozim bo'lgan shartlardan eng muhimi – yuqori havo namligi uzoq vaqtgacha mavjud bo'lishidir. Pomidorning pastki barglarini yulib olib tashlash va issiqxonani isitish va shamollatish yordamida namlik 70-80% bo'lishi ta'minlansa, ekin kuchli zararlanmaydi. Infektsiya to'planishining oldini olish uchun zararlangan o'simlik qoldiqlarini issiqxonadan chiqarib, yo'qotish lozim. Kasallik kuchli rivojlanish xavfi bo'lsa, ekinga fungitsid (dixlofluanid, iprodion) purkash tavsiya qilingan. Qo'zg'atuvchi benzimidazollarga chidamli; dikarboksimidlar (iprodion, vinklozolin) muntazam ravishda ishlatilsa, qo'zg'atuvchida ularga ham chidamlilik

rivojlanishi ehtimolini hisobga olib, fungitsid qo'llashning puxta tayyorlangan programmasini ishlab chiqish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 20 martdagi PQ-4246-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestri. Toshkent – 2021. b. 48-51.
3. "Agrobank" ATB tomonidan 100 ta kitobdan iborat qo'llanmalar to'plami.
4. Zuev V.I., Asatov Sh.I. Issiqxonalar uchun pomidor navlarini to'g'ri tanlash. G'G' J. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. – Toshkent, 2002. – № 4 (10). – b. 22-26.
5. Zuev V. Ataxodjaev A., Qodirxo'jaev O. Himoyalangan erlarda ko'chat va sabzavotlarni etishtirish. – T.: Noshir, 2010. – b 163-184.
6. Zuev V.I., Ataxodjaev A.A., Qodirxo'jaev O., Asatov Sh.I., Akromov U.I. Himoyalangan joy sabzavotchiligi. T., "Iqtisod-moliya" 2014. – b 424
7. Shuvaev Yu. Rannie ovohi iz teplitso'. – M.: Novaya volna, 2001. – s. 354-362.